

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№8

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
avgust



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,
182 sahifa, avgust, 2025-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- | | |
|---|--|
| 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi | 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish |
| 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari | 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar |
| 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash | 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari |
| 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari | 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik |
| 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti | 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti |
| 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi | 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi |
| 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari | 08.00.02 – Makroiqtisodiyot |
| 05.01.07 – Matematik modellash | 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti |
| 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt | 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti |
| 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik | 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti |
| 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari | 08.00.06 – Ekonometrika va statistika |
| 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti | 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit |
| 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash | 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit |
| 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi | 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti |
| 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari | 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti |
| 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari | 08.00.11 – Marketing |
| 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi | 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot |
| | 08.00.13 – Menejment |
| | 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari |
| | 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti |
| | 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya |
| | 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati |

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Visualdsp++ platformasida raqamli signal protsessorlarini dasturlash texnologiyasi	12
Ibragimov Sanjarbek Salijanovich	
Tadbirkorlik tushunchasi: falsafiy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik tahlil.....	19
Rajabov Sirojiddin Mansurovich	
Xorijiy davlatlar sog'liqni saqlash tizimida investitsiya loyihalarini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish mexanizmi	26
Karabayev Sanjar Abdusamatovich	
Feasibility study and site optimization for small hydropower plants along the syr darya river in Uzbekistan.....	33
Karimov Mustafu Aminbayevich, Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
Agrar sohada risklarning o'zaro ta'sirchan tarzda namoyon bo'lish xususiyatlari.....	42
Baymirzaev Dilmurod Nematovich	
Parrandachilik mahsulotlari omilli tahlil qilishda indeks usulidan foydalanish.	47
Bobomuratov Imomkul Islamovich	
O'zbekiston telekommunikatsiya sohasida raqamlashtirish jarayonlarini samarali boshqarish: "O'zbektelekom" ak misolida.....	56
Islamov Javlon Rasulovich	
Tijorat banklari amaliyotida jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish yo'nalishlari.....	59
Rustamov Sunnatillo Rustamovich	
Tadbirkorlikning mamlakat yaimdagi ulushi va uning o'zgarish tamoyillari	66
Ibragimova Gulchexra Toxirovna	
Norasmiy bandlikning yashirin iqtisodiyot shakllanishi va dinamikasiga ta'sirining nazariy va amaliy jihatlar	72
Xasanov Jaxongir Jamshidovich, Sharifxo'jayev Shavkat Oqilovich	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlariga ajratilgan kreditlarning amaliy holati va dinamikasi	80
Irgasheva Nigora Akbarovna	
Туристская мобильность стран персидского залива как устойчивый и перспективный источник въездного туризма в Узбекистан	87
Гольшьева Елена Вячеславовна; Додиев Феруз	
O'zbekistonda sug'urta bozori holati va o'sish sur'ati	96
Bazarov Zakir Xonqulovich	
Davlat xaridlarida narxning eng yuqori chegarasi: huquqiy mexanizm va amaliy ahamiyati	101
Mamasoliyev Abrorbek Abdug'ani o'g'li	
O'zbekiston respublikasida norasmiy sektor va aholini norasmiy mehnat bilan bandligining legallashtirishini boshqarishni istiqbolli ko'rsatkichlari.....	105
Qoraboev Nuriddin Pardaboy o'g'li	
Разработка инновационных инструментов и механизмов стратегического управления проектами	110
Мансурова Севара Мансуровна	
Sug'urta kompaniyalarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning metodologik asoslari: nazariy va amaliy jihatlar	114
Haqberdiyev Bekzod O'ktamovich	
Учёт и аудит обязательств на предприятиях: анализ зарубежного опыта и практики	120
Халыкназарова Гулназ Жалгасбай кызы	
Theoretical Basis for Ensuring a Cotton Layer on a Conveyor Belt	126
G'.R.Rakhmatov	



Korxonalarning moliyaviy barqarorligini boshqarish	132
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li	
Targetlangan iqtisodiy siyosat orqali kambag'allikka qarshi kurash.....	138
Baratov J.N.	
Jismoniy shaxslarning daromadlariga deklaratsiya asosida soliq solish mexanzmini takomillashtirish	144
Ibragimov Zafar Ismailovich	
Bekobod sement zavodida ishlab chiqarish jarayonlarida og'ir mehnat omillarini avtomatlashtirish orqali xavfni kamaytirish	152
Ishchanov Atabay Reyimberdiyevich	
Tadbirkorlikning mamlakat yaimdagi ulushi va uning o'zgarish tamoyillari	159
Ibragimova Gulchexra Toxirovna	
Практические подходы к выявлению и оценке налоговых рисков на основе сегментации деятельности налогоплательщиков	164
Голубова Ольга Сергеевна, Элбаева Мукаддас Рашидовна	
Tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalashuv jaroyonlarini takomillashtirish	170
Kulboyeva Nargiz Majitovna	
O'zbekistonda innovatsion faoliyatga ta'sir qiluvchi tashqi va ichki omillar.....	176
Anasxon Yunusov A'zamjon o'g'li	

O'ZBEKISTONDA INNOVATSION FAOLIYATGA TA'SIR QILUVCHI TASHQI VA ICHKI OMILLAR.

Anasxon Yunusov A'zamjon o'g'li

Namangan davlat texnika universiteti

Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar) yo'nalishi

bo'yicha 2-kurs magistratura talabasi

anaskhonyunusov1@gmail.com

Annotatsiya: O'zbekistonda innovatsion faoliyatga ta'sir qiluvchi tashqi va ichki omillar tizimli tahlil qilinadi hamda ularning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni ochib beriladi. Innovatsion jarayonlarning muvaffaqiyatli kechishi ko'p jihatdan mamlakat ichidagi ijtimoiy-iqtisodiy muhit, qonunchilik bazasi, moliyalashtirish manbalari, ilmiy-tadqiqot salohiyati va inson kapitalining darajasiga bog'liq. Shu bilan birga, tashqi omillar — jumladan, globallashuv jarayonlari, xorijiy investitsiyalar oqimi, xalqaro hamkorlik aloqalari va texnologik tendensiyalar ham innovatsion rivojlanishga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Maqolada O'zbekistonda innovatsion faoliyatni rag'batlantirishga doir qabul qilingan davlat dasturlari, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari asosida mavjud imkoniyatlar hamda mavjud muammolar yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy tendensiyalar asosida innovatsion muhitni yanada takomillashtirish yo'llari ham ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari O'zbekistonning innovatsion salohiyatini oshirish, iqtisodiyotda yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini ko'paytirish va raqobatbardosh milliy innovatsiya tizimini shakllantirishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: innovatsion faoliyat, ichki omillar, tashqi omillar, iqtisodiy rivojlanish, ilmiy-tadqiqot salohiyati, inson kapitali, globallashuv, xorijiy investitsiyalar, xalqaro hamkorlik, texnologik tendensiyalar, davlat dasturlari, Prezident farmonlari, innovatsion muhit, raqobatbardoshlik, milliy innovatsiya tizimi.

Abstract: This article systematically analyzes external and internal factors affecting innovation activity in Uzbekistan and reveals their role in economic development. The successful course of innovation processes largely depends on the socio-economic environment, legislative framework, sources of financing, research potential and the level of human capital within the country. At the same time, external factors - including globalization processes, foreign investment flows, international cooperation and technological trends - also directly affect innovative development. The article highlights the existing opportunities and existing problems based on state programs, presidential decrees and government resolutions adopted to stimulate innovation activity in Uzbekistan. It also considers ways to further improve the innovation environment based on modern trends. The research results are of practical importance in increasing Uzbekistan's innovation potential, increasing the share of high-value-added products in the economy, and forming a competitive national innovation system.

Keywords: innovative activity, internal factors, external factors, economic development, research potential, human capital, globalization, foreign investments, international cooperation, technological trends, state programs, Presidential decrees, innovative environment, competitiveness, national innovation system.

Аннотация: В статье системно проанализированы внешние и внутренние факторы, влияющие на инновационную активность в Узбекистане, раскрыта их роль в экономическом развитии. Успешное протекание инновационных процессов во многом зависит от социально-экономической среды, законодательной базы, источников финансирования, научно-исследовательского потенциала и уровня человеческого капитала в стране. При этом внешние факторы, в том числе процессы глобализации, потоки иностранных инвестиций, международное сотрудничество и технологические тренды, также оказывают непосредственное влияние на инновационное развитие. В статье освещаются имеющиеся возможности и существующие проблемы на основе государственных программ, указов президента и постановлений правительства, принятых для стимулирования инновационной активности в Узбекистане. Также рассматриваются пути дальнейшего совершенствования инновационной среды на основе современных тенденций. Результаты исследования имеют практическое значение в повышении инновационного потенциала Узбекистана, увеличении доли продукции с высокой добавленной стоимостью в экономике, формировании конкурентоспособной национальной инновационной системы.

Ключевые слова: инновационная активность, внутренние факторы, внешние факторы, экономическое развитие, научный потенциал, человеческий капитал, глобализация, иностранные инвестиции, международное сотрудничество, технологические тренды, государственные программы, указы Президента, инновационная среда, конкурентоспособность, национальная инновационная система.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy taraqqiyot sharoitida innovatsion faoliyat har bir davlatning raqobatbardoshligini, barqaror iqtisodiy o'sishini va ijtimoiy farovonlik darajasini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Innovatsiyalar — bu nafaqat yangi texnologiyalarni yaratish va ularni amaliyotga joriy etish, balki



butun ishlab chiqarish va boshqaruv tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi kompleks jarayondir. Ayniqsa, globallashtirish va raqamli transformatsiya davrida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida innovatsion yondashuvlar asosida faoliyat yuritish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi ham ushbu global jarayonlardan chetda qolmagan holda, innovatsion taraqqiyotni milliy rivojlanish strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etmoqda. Mamlakatda innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash, ilmiy tadqiqotlar va texnologik ishlanmalarga sarmoya jalb qilish, yoshlarni ilm-fan va innovatsiyaga yo'naltirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Prezident tomonidan tasdiqlangan "Innovatsion rivojlanish strategiyasi – 2030" doirasida bu boradagi siyosiy va iqtisodiy islohotlar chuqurlashtirilmoqda.[1] Shu bilan birga, Innovatsion rivojlanish vazirligining tashkil etilishi, ilmiy markazlar va texnoparklarning faoliyatini yo'lga qo'yish, xususi sektor bilan davlat o'rtasidagi innovatsion hamkorlikni rivojlantirish kabi tashabbuslar innovatsion muhitni mustahkamlashga qaratilgan.

Shu bilan birga, O'zbekistonda innovatsion faoliyatga ta'sir qiluvchi tashqi va ichki omillar mavjud bo'lib, ular mazkur jarayonning rivojlanish sur'atlari va natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tashqi omillar sifatida global texnologik tendensiyalar, xalqaro ilmiy-texnik hamkorlik, xorijiy investitsiyalar va chet el tajribasini o'zlashtirish muhim o'rin tutadi. Ichki omillar esa mamlakatdagi iqtisodiy siyosat, huquqiy va institutsional muhit, moliyaviy resurslar, inson kapitali salohiyati hamda innovatsiyalarni qabul qilish madaniyati kabi jihatlarni o'z ichiga oladi. Mazkur maqolada O'zbekistonda innovatsion faoliyatga ta'sir etuvchi omillar har tomonlama tahlil qilinadi, ularning hozirgi holati, imkoniyatlari va mavjud to'siqlari aniqlanadi hamda samaradorlikni oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ilgari suriladi.[2]

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Innovatsion faoliyatga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish iqtisodiyot nazariyasi va amaliyotining eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, innovatsiya nafaqat iqtisodiy o'sishning, balki barqaror rivojlanishning ham poydevori sifatida namoyon bo'ladi. Bu borada xorijiy va o'zbek olimlari tomonidan turli nazariy konsepsiyalar va yondashuvlar ishlab chiqilgan.

O'zbekistonlik tadqiqotchilar orasida A. Jalilov va R. Toshpo'latovlarning ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning fikricha, innovatsion rivojlanishga ichki omillar — ilmiy-tadqiqot institutlari salohiyati, kadrlar malakasi, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish va investitsiya mexanizmlarining samaradorligi bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, ular davlat siyosatining barqarorligi va normativ-huquqiy asoslarning puxtaligini innovatsion muhitni shakllantirishda hal qiluvchi shart deb biladilar.

Xorijiy iqtisodchi olimlardan J. Schumpeter innovatsiyani iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayveri sifatida talqin qiladi. Uning "ijodiy vayronkorlik" nazariyasi innovatsiyaning eski ishlab chiqarish usullarini yangilash va bozorni qayta shakllantirishdagi o'rnini ilmiy asoslab bergan. M. Porter esa raqobat nazariyasi asosida innovatsiyani milliy iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirishning muhim strategiyasi sifatida ko'rsatadi. Porterning "raqobat ustunliklari" konsepsiyasida innovatsion klasterlar, xalqaro integratsiya va bozor sharoitlari o'zaro bog'liq omillar sifatida taqdim etiladi.

Shu bilan birga, zamonaviy xalqaro tashkilotlar, jumladan, OECD hisobotlarida innovatsion jarayonlarga tashqi omillarning ta'siri keng tahlil qilingan. Jumladan, global texnologik tendensiyalar, xorijiy investitsiyalar oqimi, xalqaro ilmiy hamkorlik, intellektual mulkni himoya qilish tizimlari innovatsion rivojlanishning tashqi tayanch ustunlari sifatida qayd etilgan. Bu omillar milliy innovatsion siyosatni ishlab chiqishda va xalqaro me'yorlarga moslashtirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, innovatsion faoliyatga ta'sir qiluvchi omillar kompleks va ko'p qirrali bo'lib, ular ichki resurslar (ilmiy kadrlar, moddiy-texnik baza, institutsional islohotlar) va tashqi omillar (global integratsiya, investitsiya muhit, texnologik transfer) uyg'unligida namoyon bo'ladi. Mazkur omillarning samarali uyg'unlashuvi milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini jadallashtiradi va uni xalqaro maydonda raqobatbardosh qiladi.

METODOLOGIYA

Innovatsion faoliyatga ta'sir qiluvchi omillarni tadqiq qilishda kompleks metodologik yondashuv zarur. Ushbu tadqiqot quyidagi metodologik asoslar ustiga qurildi:

Qiyosiy tahlil – O'zbekistonning innovatsion rivojlanish tajribasi rivojlangan davlatlar (AQSH, Germaniya, Janubiy Koreya, Yaponiya) hamda mintaqaviy davlatlar tajribasi bilan solishtirildi. Bu orqali milliy xususiyatlar va global tendensiyalar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar aniqlanadi.

Sistemali yondashuv – innovatsion faoliyatga ta'sir qiluvchi ichki (ilmiy salohiyat, kadrlar, moliyalashtirish, huquqiy asoslar) va tashqi (investitsiyalar, texnologik transfer, xalqaro hamkorlik) omillar yagona tizim sifatida o'rganildi. Bu omillarning o'zaro bog'liqligi, ularning ijobiy yoki salbiy ta'siri alohida tahlil qilindi.

Dokumental tahlil – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining innovatsion rivojlanishga oid farmon va qarorlari, “Innovatsion rivojlanish strategiyasi”, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” konsepsiyasi, shuningdek, xalqaro tashkilotlarning (OECD, Jahon banki, UNDP) hisobotlari asosiy huquqiy va institutsional baza sifatida o‘rganildi.

Kontent tahlil – o‘zbek va xorijiy olimlarning ilmiy maqolalari, monografiyalari, xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar tahlil qilindi. Bu jarayon ilmiy g‘oyalarni tizimlashtirish va konseptual asos yaratishga xizmat qildi.

Statistik va empirik yondashuv – O‘zbekiston va boshqa davlatlarda innovatsion faoliyat ko‘rsatkichlari (YAIMda innovatsiya ulushi, ilmiy tadqiqot xarajatlari, startaplar soni, patentlar oqimi va h.k.) empirik ma’lumotlar asosida o‘rganildi.

Mazkur metodologiyaning qo‘llanilishi tadqiqotning nazariy aniqligini va amaliy ahamiyatini ta’minlaydi. Natijada, innovatsion faoliyatni rivojlantirishda milliy va global omillarning uyg‘unligi ilmiy asoslangan holda ochib berildi.

TAHLILIY NATIJA

O‘zbekistonda innovatsion faoliyatning rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillarni ichki va tashqi jihatlar bo‘yicha tahlil qilish, bu sohaning hozirgi holatini baholash va kelajakdagi rivojlanish imkoniyatlarini aniqlash imkonini beradi. So‘nggi yillarda hukumat tomonidan innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish, ilm-fan va texnologiyani iqtisodiy faoliyatga tatbiq etish borasida qator muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi. Biroq mavjud imkoniyatlarga qaramay, innovatsion faoliyat kutilgan darajada samarali yo‘lga qo‘yilmagan.

Quyidagi 1-jadvalda 2020–2024-yillar davomida innovatsion faoliyatga oid ba’zi asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar keltirilgan.

1-jadval. O‘zbekistonda innovatsion rivojlanishning asosiy ko‘rsatkichlari (2020–2024-yillar)

Yil	YAIMdagi ilmiy-tadqiqot ulushi (%)	Innovatsion mahsulotlar ulushi (%)	Patentlar soni (yiliga)	Xorijiy investitsiya (mln \$)
2020	0.22	4.8	105	358
2021	0.24	5.1	120	426
2022	0.26	5.4	137	488
2023	0.28	6.0	156	553
2024	0.30	6.5	174	610

Ichki omillar tahlili: Ichki omillar sifatida ilmiy-tadqiqot institutlari sonining cheklanganligi, innovatsion faoliyatga yo‘naltirilgan byudjet mablag‘larining nisbatan kamligi, texnologik infratuzilmaning rivojlanmaganligi, kadrlar salohiyatining pastligi va xususiy sektorning innovatsiyaga qiziqishining sustligi ajralib turadi. Yuqoridagi jadvalda ko‘rsatilganidek, ilmiy-tadqiqot ishlariga ajratilgan YAIM ulushi 2020-yildagi 0.22 foizdan 2024-yilga kelib atigi 0.30 foizgacha oshgan. Bu esa xalqaro me‘yorlar bilan solishtirilganda juda past ko‘rsatkich hisoblanadi (masalan, Janubiy Koreyada bu ko‘rsatkich 4,8% ni tashkil etadi).

Innovatsion mahsulotlar ulushi ham, iqtisodiyotdagi umumiy mahsulotlar hajmiga nisbatan juda past bo‘lib, 2024-yilda 6.5% ga yetgan xolos. Bu esa ishlab chiqarishda hali ham texnologik yangiliklarning keng tatbiq etilmayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, ichki texnologik innovatsiyalar ko‘proq davlat sektoriga qaratilgan bo‘lib, xususiy tadbirkorlar innovatsiyaga sarmoya kiritishdan ehtiyot bo‘lmoqda. Bunga sabab esa yuridik muhitdagi noaniqliklar, intellektual mulk huquqlari zaifligi va risklarni sug‘urtalash mexanizmlarining mavjud emasligidir.

Tashqi omillar tahlili: Tashqi omillar sifatida chet el investitsiyalarining hajmi, xalqaro texnologik almashuv, global innovatsion tendensiyalar bilan integratsiyalashuv darajasi muhim rol o‘ynaydi. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, xorijiy investitsiyalar hajmi yildan-yilga oshgan bo‘lsada (2020-yilda 358 mln \$ dan 2024-yilda 610 mln \$ gacha), bu investitsiyalar asosan xomashyo sektoriga yo‘naltirilmoqda, innovatsion startaplarga yoki texnologik rivojlanishga qaratilgan sarmoyalar esa juda kam.

Shuningdek, O‘zbekiston xalqaro innovatsion indekslarda past o‘rinlarni egallamoqda. Masalan, 2023-yilda Global Innovation Index (WIPO) reytingida O‘zbekiston 132 davlat ichida 92-o‘rinni egallagan. Bu esa mamlakatning xalqaro innovatsion muhitga yetarlicha integratsiyalashmaganligini ko‘rsatadi.[4]

Muhokama

O‘zbekiston innovatsion taraqqiyotga intilayotgan bo‘lsa-da, amaldagi iqtisodiy va institutsional mexanizmlar hali ham samarali ishlamayapti. Innovatsiyalarni moliyalashtirish mexanizmlarining sustligi, tahliliy markazlar va texnoparklar sonining cheklanganligi, oliy ta’lim muassasalari bilan sanoat o‘rtasidagi uzviy aloqalarning sustligi kabi holatlar ushbu yo‘nalishda to‘siq bo‘lib qolmoqda.



Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi strategik choralarni tavsiya etish mumkin:
Innovatsion faoliyatni rag'batlantirishga yo'naltirilgan soliq va grant siyosatini kuchaytirish;
Ilmiy izlanishlar uchun ajratiladigan mablag'larni YAIMning kamida 1 foizigacha yetkazish;
Texnoparklar va innovatsion inkubatorlar sonini oshirish hamda ularni hududiy tenglik asosida rivojlantirish;

Xususiyl sektorini innovatsiyaga jalb etish uchun kafolatli moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish;
Xorijiy texnologiyalarni jalb etish va mahalliyashtirish uchun qonunchilik bazasini soddalashtirish.

Umumiy qilib aytganda, innovatsion faoliyatning O'zbekistonda jadal rivojlanishi uchun ichki imkoniyatlarni to'liq safarbar etish, tashqi sarmoyalar va texnologik almashuvni jadallashtirish muhim ahamiyatga ega.[5] Ana shundagina raqobatbardosh iqtisodiy tizim shakllanishi va mamlakat barqaror innovatsion rivojlanishga erisha oladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda innovatsion faoliyatning rivojlanishi ko'plab ichki va tashqi omillar ta'sirida shakllanadi. Ichki omillar qatoriga, avvalo, mamlakatdagi ilmiy-texnik salohiyat, innovatsion infratuzilmaning holati, kadrlar malakasi, davlat siyosatining yo'nalishlari, moliyaviy va tashkiliy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari kiradi. O'zbekiston hukumati so'nggi yillarda innovatsiyalarni rivojlantirish bo'yicha qator islohotlarni amalga oshirdi, jumladan, Innovatsion rivojlanish vazirligi tashkil etilib, ilmiy tadqiqot institutlari va texnoparklar faoliyati kuchaytirildi. Shuningdek, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi orqali yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishga e'tibor kuchaytirildi.

Tashqi omillar esa global texnologik tendensiyalar, xalqaro tajriba, xorijiy investitsiyalar, xorijiy bozorlar bilan integratsiya darajasi, innovatsion axborot oqimlari va xalqaro hamkorlik shakllaridan iboratdir. Jumladan, O'zbekistonning xalqaro reytinglar, global innovatsiya indekslarida ishtiroki va xorijiy hamkorlar bilan ilmiy loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlari mamlakat innovatsion salohiyatini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Tashqi omillar ichida texnologik import, xorijiy tajribani o'zlashtirish va zamonaviy boshqaruv uslublarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umumiy qilib aytganda, O'zbekistonda innovatsion faoliyatni rivojlantirish ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi. Ichki resurslar va tashqi imkoniyatlar uyg'unligini ta'minlash, innovatsion muhitni yanada qulaylashtirish, ilg'or xorijiy tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirish orqali barqaror innovatsion rivojlanishga erishish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, zamonaviy texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish modeliga o'tish va xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi(lex.uz).
2. Рахимов, Б. И., & Иброхимов, М. Б. О. (2021). МОДДИЙ-ТЕХНИКА РЕСУРСЛАРИ БОЗОРИНИ ИНСТИТУЦИОНАЛ ТУЗИЛМАСИ ВА РЕСУРСЛАР САМАРАДОРЛИГИНИ БАҲОЛАШНИНГ УСЛУБИЙ АСОСЛАРИ. ЖУРНАЛ ИННОВАЦИИ В ЭКОНОМИКЕ, 4(7).
3. Ibrohimov, B., & Sayfiddinov, S. (2024). Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ko'paytirishning asosiy yo'llari.
4. Salaxiddinova, Z. (2024). KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI "YASHIL IQTISODIYOT" ASOSIDA TASHKIL ETISH SAMARADORLIGINI TADQIQ QILISHNINING NAZARIY ASOSLARI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 13, 61-63.
5. Ibrohimov, B. (2024). O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik subyektlarida innovatsion faoliyatning ahamiyati va o'rni.
6. Ibrohimov, B., & Tursunov, A. (2024). O'zbekiston Respublikasining agrar siyosati va uni takomillashtirish yo'llari.
7. Boburmirzo, I., & Yunusov, A. (2024). KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK YILIDA MEHNAT BOZORINI TAHLILI. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 2(17), 20-28.
8. Baxtiyor o'gli, I. B. (2023). FORMS OF OWNERSHIP AND ENTREPRENEURSHIP IN AGRICULTURE IN UZBEKISTAN. Miasto Przyszłości, 42, 284-291.
9. Ibrahimovich, R. B., Ugli, I. B. B., & Ugli, I. B. B. (2023). INNOVATIVE REFORMS IN AGRICULTURE DEVELOPMENT. The American Journal of Management and Economics Innovations, 5(03), 9-13.
10. Rahimov, B. I., Yoldashev, B. S., & Ibrahimov, B. B. (2023). THE NEED TO ORGANIZE A CLUSTER IN THE AGRICULTURAL NETWORK. International Journal Of Management And Economics Fundamental, 3(02), 9-19.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100